



Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2021-yil 1-yanvar holatiga 2 677,2 ming kishini tashkil etib, 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 105,5 ming kishiga yoki 4,1 %ga o'sgan.

E'tibor bering: 2020-yil yanvar-dekabr


- Aholi soni **105,5 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **54,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- **21,2 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **21,7 mingta nikoh** va **3,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Toshkent shahar aholisining umumiy o'sishi (2020-yil yanvar-dekabr)




Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2021-yil 1-yanvar holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)



Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 377,3 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,1 %ni) va Yunusobod tumanida 352,0 ming kishini (13,1 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 36,2 ming kishini (1,4 %) va Yakkasaroy tumanida 121,6 ming kishi (4,5 %) ni tashkil etdi.




Demografik holat

Tumanlar kesimida doimiy aholi soni
(2021-yil 1-yanvar holatiga, ming kishida)




**Toshkent shahrining
aholi soni 2021-yil
1-yanvar holatiga 2 677,2
ming kishi, o'tgan yilga
nisbatan o'sish sur'ati
4,1 foizga ko'paydi.**



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida 14,4 %ga, Yunusobod tumanida 4,6 %ga, Yashnobod tumanida 4,1 %ga yetdi. Eng kam o'sish sur'ati Shayxontohur tumanida 1,4 % ni, Chilonzor tumanida 1,8 %ni hamda Mirobod tumanida 2,3 % ni tashkil etdi.

Demografik holat

Toshkent shahrida aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2021-yil 1-yanvar holatiga, ming kishida)



Ma'lumot uchun

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha ayollar soni 1 366,9 ming kishini, erkaklar soni esa 1 310,3 ming kishini tashkil qildi. Ko'rsatkichlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, ayollar soni 2,2% ga erkaklar sonidan ko'proq.

	Doimiy aholi soni (ming kishi)	shundan:			
		erkak (ming kishi)	ayol (ming kishi)	erkak (foizda)	ayol (foizda)
Toshkent shahar	2 677,2	1 310,3	1 366,9	48,9	51,1
tumanlar:					
Uchtepa	278,3	137,9	140,4	49,6	50,4
Bektemir	36,2	17,2	19,0	47,5	52,5
Yunusobod	352,0	170,8	181,2	48,5	51,5
Mirzo Ulug'bek	285,1	142,2	142,9	49,9	50,1
Mirobod	142,9	69,0	73,9	48,3	51,7
Shayxontoxur	348,3	171,1	177,2	49,1	50,9
Olmazor	377,3	183,3	194,0	48,6	51,4
Sergeli	215,9	103,7	112,2	48,0	52,0
Yakkasaroy	121,6	59,3	62,3	48,8	51,2
Yashnobod	258,9	126,6	132,3	48,9	51,1
Chilonzor	260,7	129,2	131,5	49,6	50,4

Demografik holat

Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 54,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,9 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,1 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 19,8 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida (24,0 promilledan 26,3 promillega) Uchtepa tumanida (24,1 promilledan 25,6 promillega) Yashnobod tumanida (18,7 promilledan 20,2 promillega) sezilarli o'sganligi kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




Qiz bolalar:
26,5
ming nafar



O'g'il bolalar:
28,4
ming nafar



Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-dekabr

	2019 y.	2020 y.	O'sish surati foizda
Toshkent shahar	50 285	54 874	109,1
tumanlar:			
Uchtepa	6 532	7 052	108,0
Bektemir	1011	952	94,2
Yunusobod	6 568	7 196	109,6
Mirzo Ulug'bek	4 172	4 506	108,0
Mirobod	2 240	2 371	105,8
Shayxontoxur	6 609	7 188	108,8
Olmazor	7 902	8 375	106,0
Sergeli	4 519	5 420	119,9
Yakkasaroy	1 634	1 737	106,3
Yashnobod	4 458	5 061	113,5
Chilonzor	4 640	5 016	108,1



Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi) 2020-yil yanvar-dekabr



Demografik holat

Vafot etganlar. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 21,2 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 8,1 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 2,0 promillega ko'paydi (2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 6,1 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2019-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada ko'payishi Uchtepa (6,1 promilledan 8,9 promillega), Olmazor (5,3 promilledan 8,0 promillega), Shayxontohur (4,5 promilledan 7,0 promillega), Yunusobod (6,2 promilledan 8,3 promillega) va Chilonzor (6,1 promilledan 8,0 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



10,9 ming
kishi




10,3 ming
kishi

Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni (kishi) 2020-yil yanvar-dekabr


	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati foizda
Toshkent shahar	15 482	21 199	136,9
tumanlar:			
Uchtepa	1638	2454	149,8
Bektemir	239	287	120,1
Yunusobod	2089	2882	138,0
Mirzo Ulug'bek	1988	2210	111,2
Mirobod	978	1213	124,0
Shayxontoxur	1517	2424	159,8
Olmazor	1908	2956	154,9
Sergeli	1238	1720	138,9
Yakkasaroy	608	799	131,4
Yashnobod	1776	2217	124,8
Chilonzor	1503	2037	135,5

Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni (kishi) 2020-yil yanvar-dekabr



Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlarning o'tgan yilga




Demografik holat

2020-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 54,6 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,6 % o'simalardan, 3,6 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 2,7 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,7 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 14,3 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 6,5 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,7 ming nafarni tashkil etib, ularning 53,0 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 26,8 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 8,2 % tug'ma anomaliyalardan, 6,2 % yuqumli va parazitar kasalliklardan va 5,8 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2020-yil yanvar-dekabr

Tabiiy o'sish. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 33,7 ming kishini tashkil etib, 2019-yil mos davriga nisbatan 1,1 ming kishiga (2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 34,8 ming kishi bo'lgan) kamaygan.



Tabiiy o'sish:
33,7 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 21,7 ming ta nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,3 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bektemir (112,8%), Olmazor (107,9%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,5 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2019-yilning mos davriga nisbatan **yuqori pasayish sur'atlari** Uchtepa (73,4%), Yakkasaroy (76,4%), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik (2020-yil yanvar-dekabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019 y.	2020 y.	O'sish surati foizda	2019 y.	2020 y.	O'sish surati foizda
Toshkent shahri tumanlar:	21069	21672	102,9	4529	3899	86,1
Uchtepa	2636	2674	101,4	474	348	73,4
Bektemir	375	423	112,8	102	86	84,3
Yunusobod	2853	2992	104,9	578	511	88,4
Mirzo Ulug'bek	1856	1798	96,9	547	455	83,2
Mirobod	1015	1083	106,7	279	251	90,0
Shayxontohur	2741	2681	97,8	423	416	98,3
Olmazor	2899	3128	107,9	502	453	90,2
Sergeli	1849	1954	105,7	457	411	89,9
Yakkasaroy	810	899	111,0	216	165	76,4
Yashnobod	1970	1904	96,6	454	419	92,3
Chilonzor	2065	2136	103,4	497	384	77,3

Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik
(2020-yil yanvar-dekabr)



Demografik holat


Migratsiya. 2020-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 77,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,1 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini 71,8 ming kishi tashkil etib, 2019-yilning mos davrida 26,9 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019-yil yanvar-dekabr	2020-yil yanvar-dekabr
Ko'chib kelganlar	34,7	77,9
Ko'chib ketganlar	7,7	6,1
Migratsiya saldosini	26,9	71,8



Toshkent shahrining tumanlar kesimidagi aholi migratsiyasi (ming kishi)



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (14,8 ming kishi), Sergeli (11,9 ming kishi), Chilonzor (11,0 ming kishi) hamda Mirzo Ulug'bek (8,7 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: D.Raxmedova (71) 203--88-48